

UDK 619:636.7:615:633.88

**SPORT OTLARIDA OG‘IZ BO‘SHLIG‘I JAROHATLARI ETIOLOGIASI,
KILINIKASI, DIAGNOSTIKASI, PROFILAKTIKASI**

Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich

SamDVMCHBU professori

Chinmurodov Jahongir To‘lqinjon o‘g‘li

SamDVMCHBU magistranti

ANNOTATSIYA.

Tadqiqotlarda kasallangan otlarda jag‘ tishlari ko‘proq ishkalanib, qirralari o‘tkir bo‘lib qolganligi qayd etildi. Bu patologiya barcha kasal hayvonlarning og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida jarohatlar va yaralar hosil bo‘lishi va oshqozon-ichak tizimida turli muammolar rivojlanishiga olib kelishi aniqlandi. Otlardagi og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida jarohatlarini o‘z vaqtida aniqlash va kompleks ravishda davolash usullarini qo‘llash kasallik tezda tuzalishi, og‘iz bo‘shlig‘ida shikastlar retsidivlarini va oshqozon–ichak tizimi kasalliklari paydo bo‘lishini oldini oladi

Kalit so‘zlar. jag‘ tishlari, o‘tkir qirralar, jarohatlar va yaralar, stomatologik davolash.

**ЭТИОЛОГИЯ, КЛИНИКА, ДИАГНОСТИКА, ПРОФИЛАКТИКА ТРАВМ
ПОЛОСТИ РТА У СПОРТИВНЫХ ЛОШАДЕЙ**

Таштемиров Равшанбек Матлюбович

профессор СамГУВМЖБ

Чинмуродов Жахонгир Тулкинжон угли

магистрант СамГУВМЖБ

АННОТАЦИЯ.

В исследованиях было отмечено, что у зараженных лошадей челюстные зубы стали больше стертые, а края стали острыми. Установлено, что данная патология приводит к образованию ран и язв на слизистой оболочке ротовой полости всех больных животных и развитию различных нарушений в системе желудочно-кишечного тракта. Своевременное выявление повреждений на слизистой оболочке полости рта у лошадей и применение комплексных методов лечения помогут быстро излечить заболевание, предотвратить рецидивы повреждений в полости рта и возникновение заболеваний желудочно-кишечного тракта.

Ключевые слова. зубы челюсти, острые края, травмы и раны, лечение зубов.

ETIOLOGY, CLINIC, DIAGNOSIS, PREVENTION OF ORAL INJURIES IN
SPORTS HORSES.

Tashtemirov Ravshanbek Matlyubovich
Professor SamSUVMAHB
Chinmurodov Jahongir To‘lqinjon o‘g‘li
Master of SamSUVMAHB

ANNOTATION.

In the researches, it was noted that in infected horses, the jaw teeth were rubbed more and the edges became sharp. It was found that this pathology leads to the formation of wounds and ulcers in the mucous membrane of the oral cavity of all sick animals and the development of various problems in the gastrointestinal system. Timely detection of injuries on the mucous membrane of the oral cavity in horses and the use of complex treatment methods will help to quickly heal the disease, prevent the recurrence of injuries in the oral cavity and the occurrence of diseases of the gastrointestinal system. takes

Key words. jaw teeth, sharp edges, injuries and wounds, dental treatment.

Mavzuning dolzarbligi

Otlarning og‘iz bo‘shlig‘idagi turli patologik jarayonlar: stomatit, gingivit; tish, yuqori tanglay, so‘lak bezlari va yo‘llarining patologiyalari va boshqa kasalliklar ularning tashqi muhit ta‘siriga moslashishiga to‘sqinlik qiladi, sport otlarni muddatdan avval yaroqsiz bo‘lishiga olib keladi [1, 3].

Mexanik ta‘sir oqibatida og‘iz bo‘shlig‘ida jarohatlar, og‘riq, shish, qizarish, mahalliy haroratning oshishi rivojlanadi. Patogen mikroorganizmlar tushishi, rivojlanishi va ko‘payishi natijasida yiringli-seroz ekssudat to‘planadi, u atrof qon tomirlar devorlaridagi nerv retseptorlari qo‘zg‘alishiga sabab bo‘lib, shish rivojlanadi [2, 4, 5, 6]. Shulardan kelib chiqqan holda bizlar otlardagi og‘iz bo‘shlig‘ida jarohatlar sabablarini, ularni davolashda jarrohlik va stomatologik usullarining samarasini aniqlash va oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqishni maqsad qildik.

Tadqiqot ob‘yekti va uslubiyotlari. Tadqiqotlar 2021-2022 yillarda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasida, universitet vivariysida, Buxoro viloyati G‘ijduvon va Samarqand viloyati Tayloq tumanlaridagi shaxsiy xo‘jaliklaridagi otlarda o‘tkazildi. Hayvonlar muntazam klinik tekshirib turildi. Izlanishlar 3 bosh nazorat va 4 bosh tajriba guruhlardagi jami 7 bosh otlarda olib borildi.

Nazorat guruhidagi otlardagi jarohatlar jarrohlikda umum qabul qilingan usulda davolandi. Tajriba guruhidagi otlarda undan tashqari me'yordan ziyod o'sib ketgan va qirralari o'tkirlashib qolgan jag' tishlari maxsus stomatologik asboblar yordamida tekislandi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Otlar orasida kasalliklarning uchrash darajasi 2021-2022 yillarda jami 122 bosh otlar tekshirilganda quyidagilar aniqlandi: otlarda eng ko'p uchraydigan kasalliklar orasida birinchi o'rinni oziq-ovqat hazm qilish tizimi - 22,95%, ikkinchi o'rinni nafas olish tizimi - 19,67% va uchinchi o'rinni tayanch – harakat apparati kasalliklari - 13,11% egalladi. Undan tashqari 12 (9,84%) boshda teri, 4 (3,28%) boshda eshitish a'zolari, 16 (13,11%) boshda tayanch – harakat apparati, 24 (19,67%) boshda nafas olish tizimi kasalliklari aniqlandi.

Patologik jarayonning mahalliy klinik manzarasi

Tadqiqotdagi barcha kasal otlar tekshirilganda ularning og'iz bo'shlig'i og'riqli va mahalliy harorati yuqori ekanligi, ogiz bo'ilig'ida bir tomonlama qontalash belgilari, til va lunj jarohatlari, shilliq pardadada yaralar kuzatildi. Ayrim tekshirilgan otlarning og'zidan yoqimsiz hid kelishi, jag' tishlari va lunj orasida ozuqa qoldiqlari to'planganligi kuzatildi, shular va boshqa barcha kasal otlarda ishtaxa buzilishi, ozuqa qabul qilishda og'riq sezilishi, oriqlash, qiynalib chaynash, gipersalivatsiya, hayvon xatti-harakatlarining o'zgarishi aniqlandi. Barcha kasal hayvonlarning oziq-ovqat tizimida turli muammolar qayd etildi. Bunday otlarda sanchiqlar kuzatildi.

Patologik jarayonni davolash davrda kuzatilgan maxalliy va umumiy o'zgarishlar

Tajriba guruhidagi otlarni davolashning 2-kunida 2 bosh otlarda pastki jag'dagi qo'shimcha premolyarlar olib tashlandi. Davolashning 7-kunida tajriba guruhi hayvonlarda tana harorati me'yorli ko'rsatkichlarda edi. Og'iz bo'shlig'ida mahalliy harorat yo'qolgan, shish joyining rangi atrof to'qimalar rangiday bo'lib, chegaralari bilinmaydi, paypaslab ko'rilganda sezuvchanligi atrof to'qimalardagiday edi. Lunjdagi yarachalar izlari ko'rinib turdi. Jarohatlarda faol epidermizatsiya kechgan. Yangi jarohatlar aniqlanmadi. Kasal hayvonlar o'zlarini ancha tetik sezdi va ozuqani ishtaha bilan qabul qildi.

Bu guruhdagi hayvonlarni davolash muddati 8-9 kunni egalladi. Og'iz bo'shlig'ida jarohatlar ularda boshqa kuzatilmadi. Oziq-ovqat hazm qilish tizimidagi buzilishlar esa bartaraf etildi.

Nazorat guruhidagi otlarni davolashning 7-kunida nazorat guruhi hayvonlarda tana harorati me'yorli ko'rsatkichlarda edi. Shish va mahalliy harorat sezilmaydi. Og'iz bo'shlig'ida jarohatlar yuzasi kichraygan, ammo mahalliy og'riq xali ham saqlangan. Kasal hayvonlar og'zini ochishga to'sqinlik qiladi. Lunjdagi yarachalar va jarohatlar aksariyatining chetlari kichraygan, ammo og'iz bo'shlig'ida yangi jarohatlar

paydo bo'lgan. Kasal hayvonlar o'zlarini qoniqarli sezadi, ozuqani oz-ozdan qabul qildi, chunki uni chaynashga qiynaldi.

Bu guruhdagi hayvonlarni davolash muddati 13 kunlarni egalladi. Ammo ularda og'iz bo'shlig'ida jarohatlar yana retsidiv berdi. Oziq-ovqat hazm qilish tizimidagi buzilishlar esa saqlanib qoldi va keyinchalik doimiy muammo bo'lib qoldi.

Xulosalar

1. Otlarda eng ko'p uchraydigan kasalliklar orasida oziq - ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari egallaydi.

2. Kasallangan otlarda yuqori jag' tishlarining ichki yuzasi pastki jag'da esa tashqi yuzasi ko'proq ishtalanganligi aniqlandi

3. Tajriba guruhidagi hayvonlarni davolash muddati 8 kunni egalladi va ularda og'iz bo'shlig'ida jarohatlar boshqa kuzatilmadi.

4. Nazorat guruhidagi hayvonlarni davolash muddati 13 kuni egalladi, ammo ularda og'iz bo'shlig'ida jarohatlari yana paydo bo'ldi.

Иктибослар/Сноски/References:

1. Борисов И., Ройдев Р. Болезни зубов у лошадей. Ж. Vetpharma №4 | (сентябрь 2012)

2. Воронцов К.П., Куляков Г.В. Основные принципы клинического обследования лошадей при диагностике незаразных болезней. //Иппология и ветеринария. Ежеквартальный научно-производственный журнал. 3 (5) // Санкт-Петербург/ 2012, с. 7-18

3. Федорин А.В., Беляев В.А., Шахова В.Н., Петросенко Т.А. Нозологический профиль незаразных болезней служебных лошадей в условиях среднегорья Краснодарского края. Ветеринария Кубани. № 3, 2017

4. Tashtemirov R. M. [Age changes in the linear sizes of the bones of the pelvic limb sheep of the karakul breed](#). ANNALS OF FOREST RESEARCH. 65 (1). 2022/11/11. P. 12782-2791.

5. Tashtemirov R.M, Dauletbaev N.P. (2022)[Qaraqalpaqstan respublikasinda ayrim qaramalshiliq xojaliqlaridagi tuyaq keselliklerini ushrasiw darejesi](#). - INTERNATIONAL CONFERENCES, , 1(13), p. 100-103

6. Таштемиров Р. М. Бакриддинов Г. [Итлардаги тери касалликларини доривор ўсимлик препаратлари билан даволаш ва олдини олиш тамойиллари](#). Естественные науки: теория и практика. 2021. 1 (1), 14-18